

**QO‘QON DAVLAT  
PEDAGOGIKA INSTITUTI  
ILMIY XABARLARI  
(2025-yil 2-son)**



**PEDAGOGIKA  
PEDAGOGY**

**TEXNOLOGIYA TA’LIMIDA SINFDAN VA MAKTABDAN TASHQARI  
TARBIYAVIY ISHLAR KONSEPSIYASINI O’RNI.**

*Egamova Ravshanoy Surobjonovna*  
*Qo‘qon davlat pedagogika instituti doktoranti*  
*Telefon: +998 93 985 89 16*  
*[ravshanoyegamova9@gmail.com](mailto:ravshanoyegamova9@gmail.com)*  
*ravshanoyegamova9@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqlolada ma’naviy-axloqiy jihatdan shakllangan barkamol inson muammosi yechimi oilada, maktabda va maktabdan tashqari muassasalarda beriladigan ta’lim-tarbiyasining mazmuni, Tarbiyaning asosiy tizimi hamda Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar Konsepsiyasini amalga oshirish vazifalari keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Konsepsiyasi, vatanparvarlik, insonparvarlik, baynalminallik, axloq, demokratiya, ta’lim-tarbiya.

**МЕСТО ПОНЯТИЯ УЧЕБНОЙ РАБОТЫ ВНЕ КЛАССА И ШКОЛЫ В  
ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ.**

**Аннотация:** В данной статье представлены решение проблемы формирования всесторонне развитой личности, сформированной с морально-этической точки зрения, содержание образования, предоставляемого в семье, школе и внешкольных учреждениях, основная система воспитания и задачи реализации Концепции образовательной деятельности вне класса и вне школы.

**Ключевые слова:** Концепция, патриотизм, гуманизм, интернационализм, мораль, демократия, образование.

**THE PLACE OF THE CONCEPT OF EDUCATIONAL WORK OUTSIDE THE  
CLASSROOM AND SCHOOL IN TECHNOLOGY EDUCATION.**

**Abstract:** In this article, the solution to the problem of a well-rounded person formed from a moral and ethical point of view, the content of education provided in the family, school and extracurricular institutions, the main system of education and the tasks of implementing the Concept of educational activities outside the classroom and outside the school are presented.

**Key words:** Concept, patriotism, humanitarianism, internationalism, morality, democracy, education.

Ma’naviy-axloqiy jihatdan shakllangan barkamol inson muammosi yechimi oilada, maktabda va mактабдан tashqari muassasalarda beriladigan ta’lim- tarbiyasining mazmuni tizimli ravishda ma’lum bir konsepsiya mujassamlashtirilgan.

Konsepsiya tushunchasi har bir pedagogik texnologiya, falsafa, psixologiya, didaktik ta’lim maqsadlariga erishishning ijtimoiy- pedagogik dalillarni o‘z ichiga oladigan aniq ilmiy konsepsiya tayanishdir. Konsepsiya- maqsadga yetishishning xomaki rejasi mazkur sohada mavjud qonuniyatlar bilan asoslab berilgan bosqich konsepsiya yoki ilmiy asoslangan taxmin deyiladi.

“Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fanining muhim tomoni, sinfdan va maktabdan tashqri ishlarni samarali tashkil qilishdir. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy konsepsiya o‘qituvchilar faoliyatini yuksak saviyada tashkil etish uchun dasturulamaldir. [2. B.45]

O‘zbekiston Respublikasining istiqlolga erishuvi hamda mustaqil siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy yo‘lga ega bo‘lishi xalq xo‘jaligining turli sohalarida jumladan, xalq ta’limi tizimida ham o‘sib kelayotgan barkamol avlod yuksak tarbiyasi konsepsiyasini yaratish zaruriyati paydo bo‘ldi.

Konsepsiya Qori Niyoziy nomidagi O‘z PFITI olimlari, Respublika Ta’lim markazi mutaxasislari va Xalq ta’limi vazirligi xodimlari hamda keng jamoatchilik fikrini inobatga olib tayyorlangan. Konsepsiada tarbiyaviy ishlarning asosiy yo‘nalishlari maqsad va vazifalari yosh avlodni ma’naviy- axloqiy tarbiyalashda xalqning boy ma’naviy, tarixiy an’analalariga, urf-odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslanadi. Buning uchun:

- yoshlarni erkin fikrlashga tayyorlash, o‘zini-o‘zi idora qila bilishni shakillantirish;
- o‘quvchilarni Vatanning boy ma’naviy merosi bilan tanishtirish orqali milliy g‘urur hissini tarbiyalash;
- o‘quvchilarning bilimdonligi va ijodiy imkoniyatlarini anglab rivojlantirish;
- Insonparvarlik odobi me’yorlarni shakillantirish;
- Vatanparvarlik, dunyoviy fikrlash, millatlararo totuvlik, samimiy munosabatda bo‘lish;
- Shaxsni qadrlash, fuqarolikni ijtimoiy ma’suliyatni shakllantirish;
- Mustaqil davlatimizni ko‘z qorachig‘idek asrash va uning istiqolli, istiqboli uchun sodiqlik ko‘rsatish;
- O‘quvchilarda mehnatsevarlik, sog‘lom turmush tarzini yaratish, erkin fikr egasi qilib tarbiyalash- tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishning muhim vazifalaridir. [5. B.234]

Tarbiyaning asosiy tizimi:

- Tarbiya-tarbiyalanuvchi shaxsni oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola, o‘smir va yosh yigit qizning betakror, o‘ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy huquqi va erkinligini e’tiborga olish;
- Yoshlarda istak va imkoniyat tuyg‘usini muvaffaqiyatli qaror toptirish;
- Milliylikning o‘ziga xosligi va ana’nalari va vositalariga tayinlash;

- Shaxslararo munosabatlarda insonparlik pedagoglar va o‘quvchilar o‘rtasida bir biriga hurmat munosabatlari, bolalar fikriga e’tibor qilish, ularga mehribonlarcha munosabatlarda bo‘lish. [3. B. 58]

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlari o‘quvchilarning qiziqishi, istaklari, xohish va ehtiyojlariga suyangan holda ularning darsdan bo‘sh vaqtlarini o‘quv-tarbiya jarayononi to‘ldiradi. U o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini tashabbuskorligini oshirishga imkon yaratadi.

Konsepsiada vatanparvar va komil inson tarbiyasida alohida etibor qartiladi. Vatanparvarlik va baynalminallik tarbiyasida fuqarolar birligi millatlararo hamkorlik, yosh va mustaqil mamlaktimizning asosiy negizidir. Respublikamizning mustaqil davlat sifatida shakllanish jarayonida yosh avlodni jamiat yangilanishining mohiyatini va zarurligini tushunib yetadigan, o‘zi uchun, o‘zi yashab turgan o‘lkaning gullab yashnashi uchun, ining taqdiri uchun, o‘ziga davlar va millat vakillari bilan do‘sit-birodarlikni mustahkamlash uchun javobgarlikni his qiladigan darajada tarbiyalash.

Vatanparvarlik- mustaqil O‘zbekiston uchun yanada kengroq ma’no mazmunga ega so‘z bo‘lib qoldi. Hozirgi kunda vatanparvar bo‘lish- bu iqtisodiyotimizni, mudofamizni, barcha millat vakillarining do‘stona munosabatini o‘z bilimi, fidokorana mehnati, a’lo o‘qishi bilan mustahkamlashdan iborat.

Har bir o‘quvchi Vatan muvaffaqiyatida o‘zining shaxsiy burchi burchi mas’uliyatli vazifalari borligini to‘la idrok etsin. Kundalik tarbiyaviy ishlarni shunday tashkil etish zarurki, natijada o‘quvchilar respublika mustaqilligi sharoitida uning muommolarini o‘zinikidek qabul qiladigan bo‘lsin. Uning og‘rligini o‘z yelkasiga oladigan, mumkin qadar Vatanga foyda keltiradigan shaxs bo‘lib ulg‘aysin. Bugungi kunda olib ko‘zda tutilgan barcha yangilanish jarayonlari, iqtisodiy- ijtimoiy madaniy sohalardagi tub o‘zgarishlar hammaning fidokorona xizmati tufayligina yuzaga kelishini anglab yetsin.

Baynalminal tarbiya bizning respublikamiz o‘z moxiyati bilan baynalminaldir. Shuning uchun yoshlarda baynalminalchilik, xalqlar do‘sitligi xislarini tarbiyalab borish muhim ahamiyatga egadir.

Yoshlarning baynalmilalchilik ruhida tarbiyalash asosida boshqa millat va xalqlarga ijobiy munosabat va do‘stona xis-tuygular uygotish, turli xalqlar hayotiga qiziqish xissini paydo qilish maqsadi yotadi. Bunday xis tuygularni rivojlantirish asosan taqlid qilish orqali mukammalashib boradi. O‘quvchilarning baynalmilalchilik xis tuygulari asosini shakllantirishda avvaliga ayrim jumhurriyatlarda yashaydigan har bir millat shakllari bilan uchrashuvlar oztkazish, ular bilan yozishmalar olib borish, maxsus mashg‘ulotlarda ularning urf-odatlari, madaniyati, san’ati tabati to‘g‘risidagi adabiyotlarni o‘qib berishz suhbat o‘tkazish, rasmlarni ko‘rasatish, diafilmlarni namoyish qilish, millat bolalari hayoti to‘grisidagi, turli millat kishilarining mehnati va turmushi haqidagi hikoyalrdan o‘qib berish orqali shakllanadi.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyanviy ishlarni tashkil qilish konsepsiyasiga barkamol avlodga xos axloqiy sifatlarni tarbiyalashda aloxida etibor qaratilgan.

Huquqiy tarbiyaga oid quyidagi bilimlarga ega bo‘lish lozim;

O‘zbekiston respublikasi Prezidenti, Oliy majlis senati, Prezident devoni, Vazirlar mahkamasi, Oliy majlis qonunchilik palatasi va boshqa davlat boshqaruv organlarining mohiyati va ahamiyati huquqiy maqomlarining kishilar kundalik hayotida kerakligi; [1. B. 16]

O‘zbekiston Respublikasi qonunlarining muhofaza qilish muassasalarining tashkiliy tuzilishi. Shu bilan birga O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi, Bolalar huquqlari konvensiyulari haqida bilimlarga ega bo‘lish kerak.

Konsepsiya iqtisodiy, ekologik, estetik, jismoniy, mehnatsevarlik tarbiyalarning mazmuni mohiyati sinfdan va maktabdan tashqari tadbirlar jarayoni foydalanish chora tadbirlari haqida bilim beriladi. Konsepsiya;

Iste’dodli va zukko bolalarni aniqlash va tarbiyalash;

- Mahallada tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish;
- Maktabda o‘quvchilarning o‘zini –o‘zi boshqarish kabi bilimlarni moxiyati va mazmuni berilgan.

Sinfdan va maktabdan tashqri tarbiyaviy ishlar konsepsiysi amalg oshirishda, quyidagi vazifalarni bajarish muhimdir. Bu masalaga olimlardan J.Hasanboyev, X.To‘raqulov, I. Asqarov, N. Usmonova “pedagogika” darsligida tarbiya jarayonining moxiyati va vazifalarida quyidagilarga e’tibor berishgan;

- Tarbiyada yaxlit yondashuv orqali axloqiy, goyaviy, estetik, jismoniy, iqtisodiy tarbiyaning birligi va uning uzviy ravishda amalga oshirish

- Ijtimoiy tarbiyani tashkil etis jarayoni;
- Yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ularidan keng dunyoqarashni tarkib toptirish;

- Milliy va umuminsoniy qadriyatlar haqida chuqur bilimga ega bo‘lish;
- Axloq me’yorlarini anglash, o‘zaro hurmat va adolatli bo‘lish;[4. B.56]
- Tarbiyaviy tadbirlarni tashkil qilish maqsadning aniqligi. Barkamol shaxs tarbiyasida zamонавиy talablar asosida yondashuv. Ular:

- O‘qituvchining bolalar bilan ma’naviy madaniyatning eng yaxshi namunasini izohlash. Kattalar hayoti tajribalari va shaxsiy namunalari orqali tasir ko‘rsatish;
- O‘zini o‘zi anglash, tarbiya insonda e’tiqod, demokratik qarashlar hayotiy pozitsiyasini shakllantirishga olib keladi.

Tarbiya jarayonida ixtiyoriylik. Tarbiyanuvchilarda iroda, erkinliksiz tarbiya g‘oyalarni qaror toptirish mumkin emas. Tarbiya jarayoni agar u oqilona tashkil etilsa, bir vaqtning o‘zida o‘qituvchi va o‘qituvchi ma’naviyati boyitsa bolaga faoliyat jarayonida istak va xoxish shakllariga keng o‘rin berilsa, o‘ylagan maqsadga erishish mumkin. Jamoatchilik bilan hamjihatlikda tarbiyaviy mashgulotlar ijobiy ta’sir etishi konsepsiya qo‘yilgan vazifalarni bajarishga shart sharoitlar yaratadi.

**ADABIYOTLAR:**

1. “O‘zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, “Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori”- Toshkent: Sharq, 1997-65b.
2. Karimov I.A “Yuksak m’naviyat yingilmas kuch “. Toshkent: O‘zbekiston 2008. 202 b.
3. Tarbiyaviy ishlar konsepsiysi. 2005y.
4. A. Avloniy “Turkiy Guluston yohud ahloq” (nashirga tayyorlovchi Holiqov L)- Toshkent: O‘qituvchi, 1992. 160b
5. Hasanboyev Va boshqalar “Pedagogika” fanidan izohli lug‘at. T., 2009,234bet